

MUSTAQILLIK DAVRIDA YARATILGAN ADABIYOTLARDA BUXORO MALIKALARI SIYOSIY HAYOTDA TUTGAN ROLINING YORITILISHI

Axmatova Nozliya Nu'mon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy Universiteti magistranti

Email: axmatovanozliya@gmail.com

Tel: +998979517858

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17360672>

Kirish. Markaziy Osiyo musulmon tarixida ayollar haqidagi adabiyotlar juda ham noyob va kamchilikni tashkil etadi. Mamlakat siyosiy tarixida hukmdor oilasiga mansub ayollarning faolligiga qaramasdan siyosiy, diniy va madaniy sohalarida faol bo'lgan Shayboniy va Ashtarxoniylar xonlarning rafiqalari va qizlari haqida jiddiy dalillarga qaramasdan XIX asrga qadar bu taniqli ayollarning biror birining nomi haqida birorta asar yaratilmagan, qiziqishlar bildirilmagan. Malikalar faoliyati xususida manbalarning yetishmasligi bugungi kunda O'zbekiston tarixining dolzarb muammolaridan biri. Mustaqillik davrida tadqiqotchilar ushbu mavzuga doir izlanishlar olib borishdi. Malikalarning siyosatdagi tutgan roli va uning ahamiyati to'g'risida manbalar asosida ma'lumotlar to'plandi va ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Manbalar tahlili tarixiy haqiqatlarni ochishda, malikalarning siyosiy faoliyatini ko'rsatib berishda muhim ahamiyat kasb etdi. Quyida bir necha ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishamiz.

Asosiy qism. Narzulla Yo'ldoshevning "Buxorodagi ayrim avliyolar tarixi" asari Buxoroda o'tgan avliyolar, din peshvolari va islom diniga doir ba'zi tarixiy masalalarga bag'ishlangan asar hisoblanadi¹. Asar 1993-yilda Buxoroda nashr etilgan. Mazkur asarda "Buxoro va uning atroflaridagi ayol avliyolar tarixi" qismi mavjud bo'lib, unda Nasrullohxon va Kenagasoyim bilan bog'liq ba'zi ma'lumotlarga to'xtalib o'tgan. Qahramon Rajabov tomonidan yozilgan "Amir Nasrulloh Bahodurxon" risolasi Buxoro amiri Nasrullohxon faoliyatiga bag'ishlangan bo'lib, tarixiy haqqoniylik asos qilib olingan. Risolada Amir Haydar vafotidan so'ng yuzaga kelgan vaziyat, Amir Husaynning taxtga chiqishi va to'satdan kasallikdan vafot etishi, undan keyin taxtga o'tirgan Amir Umarxon va uning boshqaruv siyosatidagi no'noqligi tufayli yuzaga kelgan vaziyatdan foydalanib taxtni egallagan Amir Nasrullohxon hamda uning ichki va tashqi siyosiy faoliyati xususida so'z boradi. Asarda Nasrullohxon o'limiga sabab bo'lgan Kenagas oyim to'g'risida batafsil ma'lumotlar uchraydi. Risola 2011-yilda yozilgan va Buxoro amirligi tarixi bo'yicha asosiy adabiyotlar sirasiga kiradi.

Turg'un Fayziyev Temuriylar sulolasiga mansub malikalar tarixini yoritgan yirik tarixchi olim hisoblanadi. O'zining "Temuriy malikalar" risolasida mavzumizga doir qism sifatida Xonzoda Begim va uning hayot yo'li to'g'risida qisqacha, ammo ahamiyatli ma'lumotlar o'rin olgan. Did-farosat va aql-zakovat sohibasi bo'lgan Xonzoda Begim nafaqat Temuriylar sulolasi vakilasi, balki shayboniylar malikasi ham edi. Turg'un Fayziyev bu voqeaga alohida to'xtalib, Samarqanddagi qamalda Bobur Mirzo va yaqinlari jonini omon saqlash evaziga Xonzoda Begim Muhammad Shayboniylar xonga xotinlikka o'tgan. Xonzoda Begimning muhim siyosiy voqeada ahamiyati yuqoriligi ko'rsatilib berilgan.

Poyon Ravshanovning "Malika kenagas oyim yoxud amir Nasrulloning o'limi" asari tarixiy-badiiy uslubda yozilgan asar bo'lib, Buxoro amiri Nasrullohxonning kenagaslardan

¹ Юлдошев Н. Бухородаги айрим авлиёлар тарихи. –Б.: Бухоро, 1993. –Б. 31.

bo'lgan xotini – Fotima oyimga bag'ishlanadi². Amir Nasrulloh markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamagan Shahrisabz viloyatiga 20 yil mobaynida 32 marta harbiy yurish uyushtirib, viloyatni 1856-yil qo'lga kiritgan. Shundan so'ng Kenagas oyim Buxoroga olib ketilib, amirning haramiga kiritilgan. Amir Nasrulloh unga uylangan. Yoqubbiy esa zindonband etilgan yoki Chorjo'y viloyatiga badarg'a qilingan. Amir Nasrulloh Kenagas oyimni o'z nikohiga olishidan asosiy maqsadi faqatgina o'z haramini yana bitta go'zal ayolga to'ldirish bo'lmasdan, balki kenagaslar bilan mang'itlar qarindoshlik rishtasini bog'lash; Shahrisabz kenagaslari o'rtasida katta obro'-e'tiborga sazovor Vallamiylar bilan qarindoshlik aloqalarini o'rnatib, ushbu qarindoshlik rishtalarini Shahrisabz viloyatini o'z davlatining ajralmas qismi sifatida ushlab turish uchun yana bir vositaga aylantirish edi. Biroq Amir Nasrullohning bu tavakkalchiligi keyinchalik o'ziga qimmatga tushgan. Pirovardida u o'zining yangi "qarindoshlari" fitnasi natijasida halok bo'lgan³. Mazkur asar tarixiy jarayonni badiiy buyoqlarda yoritgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tarixchi olim Akbar Zamonovning ham bir qator asarlari tadqiqot ishida o'rganilayotgan davrni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. A. Zamonov ushbu davr bo'yicha mutaxassis bo'lib, ilmiy tadqiqot natijalari bilan tariximiz rivojiga hissa qo'shgan. A. Zamonovning "O'rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma'lum sahifalari" kitobi Muhammad Shayboniyxon va uning malikasi Mo'g'ol Xonim tarixi haqidagi ma'lumotlarga ega hisoblanadi. Mazkur asarda Shayboniyxonning malikani nikohiga kiritish voqealari, bu voqeadan so'ng Mo'g'ol Xonimning keyingi taqdiri masalalariga guvoh bo'lamiz⁴.

A.Zamonovning yana bir boshqa asari "Buxoro xonligida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar (Shayboniylar sulolasi davri)" bo'lib, unda Buxoro xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tarixi manba va adabiyotlar asosida batafsil yoritilgan⁵.

Ismoil Bekjonning "Xonzoda Begim va Xurramshoh qismati" maqolasi o'rganilayotgan tadqiqot ishimiz uchun muhim adabiyot sirasiga kiradi. Maqolada Xonzoda Begim va uning shayboniyzoda o'g'li Xurramshoh taqdiri manbalar asosida batafsil yoritilgan. Muallif Xonzodabegim va Xurramshoh haqidagi ma'lumotlarni to'plashda "Boburnoma"⁶, "Habib us-siyar"⁷, "Tarixi Rashidiy"⁸, "Humoyunnoma", "Ahsan at-tavorix", "Lab at-tavorix", "Tarixi olamoroyi Abbosiy", "Tarixi Qipchoqxoni", "Majma' ul-g'aroyib", "Musaxxir il-bilod"⁹, "Tazkirai tarixi Muqimxoniy" kabi asarlarga murojaat etgan. Xonzoda Begimning Samarqand qamalida Shayboniyxon qo'lga tushib, nikohiga kirganligi, undan keying kechgan taqdiri, Shayboniyxon Bobur Mirzo tufayli Xonzoda Begimdan xavfsirab, ulug' amirlaridan biri Sayyid Hodiga turmushga berib yuborganligi, Marv jangi vaqtida Sayyid Hodining vafot etishi va uning ug'ruqi (oilasi) Shoh Ismoil askarlari qo'lga tushishi, Shoh Ismoil Xonzoda Begimni izzat-hurmatini joyiga qo'yib, Bobur Mirzo huzuriga yuborganligi, bu orada Xurramshohning to'satdan vafoti

² Poyon Ravshanovga ko'ra malikaning asl ismi Fotima (Fotima oyim) bo'lgan. Shahrisabz viloyatida Kenagas oyim deb izzatlangan. Uni Kenagaxonim deb eri Amir Nasrulloh atagan.

³ https://uz.wikipedia.org/wiki/Kenagas_oyim

⁴ Замонов. А. Ўрта аср тарихий шахслари ҳаётининг айрим номаълум саҳифалари. – Т.: БАЁЗ, 2020.-168 б.

⁵ Замонов А. Бухоро хонлигида сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий жараёнлар. – Т.: TURON-IQBOL, 2018. –174 б.

⁶ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: О'qituvchi, 2008. –368 б.

⁷ Гиёсиддин Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар. /Форс тилидан таржима, мукаддима муаллифлари Ж.Ҳазраткулов, И.Бекжонов. – Т.: Ўзбекистон, 2013. – 1302 б.

⁸ Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий. / В.Рахмонов ва Я.Эгамова таржимаси. – Т.: Шарқ, 2010. – 720 б.

⁹ Муҳамадиёр ибн Араб Қатағон. Мусаххир ал-билод. / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи И.Бекжонов, Д.Сангирова. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. – 430 б.

xususida turli manbalar va adabiyotlar asosida batafsil tahlil qilinib, ma'lumotlar solishtirilib, kengroq ravishda tadqiq qilingan. Bu maqolaning ahamiyatlilik darajasini oshirgan. Ismoil Bekjonning mazkur maqolasi "Xolis" ommaviy-gazeta nashrining 2011-yil 10-mart 10 (-772) sonida bosilib chiqqan¹⁰.

Xulosa. Ushbu asarlarda yoritilgan ma'lumotlar orqali malikalar faoliyatiga haqqoniy tarafdin baho berishga muvaffaq bo'lindi. Boisi, bu tadqiqotlar saroy tarixchilari tomonidan yozilgan asarlardan ko'ra maqtovlardan yoki oshirib yuborishlardan yiroq, balki haqiqat ochib berilishga harakat qilingan. Shuning uchun ham mustaqillik davri adabiyotlari tadqiqot ishimizni olib borishimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹⁰ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ismoil-bekjon-xonzodabegim-va-xurramshoh-qismati.html>